

BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA RAVON O‘QISHNI TAKOMILLASHTIRISHDA MULTISENSORLI YONDASHUVLARNI INTEGRATSIYALASH

Jumanova Soliha G'ayrat qizi

Guliston davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'rganishda qiyinchiliklar, disleksiya yoki nutqda qiyinchiliklar bo'lgan o'quvchilar bilan samarali ishlash usullari va boshlang'ich sinf o'quvchilarida ravon o'qishni yaxshilashda multisensorli yondashuvni tatbiq etish samaradorligi tahlil qilinadi. Bundan tashqari, inklyuziv ta'limga muhtoj o'quvchilar bilan inklyuziv va neyropsixologik asoslangan o'qish strategiyalarining bola psixikasiga ta'siri o'rganiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga inklyuziv va multisensorli usullarni qanday qo'llash mumkinligi va bu usullar orqali o'quvchilarning o'qish va dunyoqarashida qanday o'zgarishlar ro'y berishi ko'rib chiqiladi. Ko'rgazmali qurollar yordamida o'qish, ritmgga asoslangan fonetik mashqlar, drammatizatsiya, interfaol hikoya qilish va raqamli texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning ravon o'qishga qanday ta'sir qilishi haqida keng yoritiladi. Nazariy va amaliy kuzatishlar asosida ko'psensorli yondashuv o'quvchilarning ravon o'qish, talaffuz, intonatsiya va tushunishni yaxshilashi, shuningdek, o'quv jarayoniga tezroq kirib borishi va moslashishiga yordam berishi isbotlangan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, ravon o'qish, interfaol usullar, multisensorli yondashuv, inklyuziv ta'lim, disleksiya, ta'lim texnologiyalari, interfaol usullar.

KIRISH

Bugungi kundagi zamonaviy ta'lim jarayoni boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qish ravonligini va savodxonlik darajalarini oshirish va ularning o'z ona tillarini bilishlarini talab etadi. Shuningdek, yuqorida ta'kidlangan tushunchalar boshlang'ich sinf o'quvchilarining bundan keyingi bilimlarni olishlariga tayanch vazifasini o'taydi. Xususan, ko'p hissiyotli (multisensorli) yondashuvlar o'quvchilarning matni tushunishlarini chuqurlashtiradi, xotiralarini faollashtiradi, disleksiya va boshqa nutq buzilishlariga ega bo'lgan o'quvchilar bilan ishlashga va shu bilan birga o'quvchilarning oson o'rganishlariga ham yordam beradi.

O'qish ravonligi bu-o'quvchilarning o'zlari uchun berilgan matnni ifodali, tushunarli, to'g'ri va ongli ma'lum tezlikda o'qishiga aytiladi. Ravon o'qish ko'nikmalari orqali o'quvchilarni matnni anglaydilar va uni ma'lum ritm, intonatsiya, ohang bilan o'qiydilar. Multisensorli yondashuv aynan shunday ko'nikmalar shaklanishiga yordam beradi va osonlashtiradi. Bu yondashuv har bir o'quvchining ko'rishi, eshitishi va harakatga asoslangan idrokini hisobga olgan holda o'quvchilarning barchasiga alohida yondashadi, masalan eshitishi yaxshi bo'lgan o'quvchilarga audio matnlarlar orqali, ko'rishi yaxshi bo'lgan o'quvchilarga o'qitish orqali, kinestetik o'quvchilarga esa rolli o'yinlar orqali o'qish ravonligi oshiriladi.

Multisensorli yondashuv bu- ta'lim jarayonida bir vaqtning o'zida bir nechta sezgi organlari(ko'rish, eshitish, harakat)ni ishlatishga asoslangan metoddir. Bu yondashuvda ma'lumotlar o'quvchilarning miyyasida tezroq va yaxshiroq qoladi, undan tashqari ma'lumotlarni qayta ishlash ko'nikmalari ham shakllanadi. Buning asosiy sababi inson miyyasi aynan bir xil ma'lumotni har xil sezgi organlari orqali qabul qilsa, bu ma'lumotlar uning miyyasida chuqurroq joylashadi.

Orton-Gilingham bu yondashuvning asoschilaridan biri bo'lib, u disleksiya va nutqida qiyinchiligi bo'lgan o'quvchilarda birinchilardan bo'lib ko'psensorli metodikani sinab ko'rgan. U bu yondashuvni 1930-yillarda pedagog-psixolog Anna Gilingham bilan birgalikda ishlab chiqqan. Orton-Gilingham inson miyyasi va uning nutq faoliyatini chuqur o'rganish davomida tilida buzilishi bo'lgan o'quvchilar uchun maxsus metodika kerakligini aniqlaydi va Anna Gilingham bu ilmiy asosni amaliyotga tatbiq etdi, u amaliyotga tatbiq etish jarayonida harflarni tovushlar bilan bog'ladi, fonetik tahlil qildi, o'g'zaki va yozma nutqni bosqichma-bosqich o'rgatish usulini ishlab chiqdi.

Dastlab bu yondashuv faqat disleksiyaga chalingan bolalar uchun ishlagan bo'lsa ham keyinchalik o'qish, yozish va imlo ko'nikmalarini shakllantirishdagi samarali metodlar sirasiga kirdi.

Multisensorli yondashuvga asoslangan mashg'ulotlarga misollar:

1. Rasmi hikoyalar tuzish – bu metodda o'qituvchi o'quvchilarga biror tasvir tushirilgan qog'ozni beradi va o'sha tasvir asosida hikoya tuzishlarini aytadi. Bunda o'quvchilarda og'zaki nutq rivojlanib, tasavvurlari uyg'unlashadi va yaxlitlanadi.

2. Rolli o'qish va drammatizatsiya – bu metodda o'quvchilarga matn beriladi va o'sha matnni rollarga kirib o'quvchilar kichik sahna ko'rinishini ijro etadilar.

Bunday rolli o'qishlar orqali o'quvchilarda ifodali o'qishning: intonatsiya, pauza, ohang kabi elementlari shakllanadi.

3. Qum yoki plastilinda yozish – bu metodda o'quvchilar harflarni qum yoki plastin orqali yozadilar va bu orqali ularda taktil sezgi faollashadi va harakatlar orqali harflarni eslab qoladilar.

Yuqorida multisensorli metodlardan bir nechtasini keltirib o'tildi, bunday metodlar juda ham ko'p va ulardan foydalanish darsning samaradorligini oshirib, o'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishlarni ham oshiradi.

Multisensorli yondashuvning afzalliklari:

1. Har bir o'quvchining qobiliyatidan kelib chiqqan holda, ularni o'quv uslubiga moslaydi.

2. Darslarni interaktiv, jonli va qiziqarli o'tib, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi.

3. Matnni o'qish, eshitish, tushunish va sahnalashtirish orqali uni chuqurroq anglashga yordam beradi.

4. Disleksiya va boshqa nutq buzilishlariga ega bo'lgan o'quvchilar uchun ajoyib o'quv muhitini yaratib beradi.

5. Turli sezgilar orqali qabul qilingan ma'lumotlar xotirani faollashtiradi.

Multisensorli yondashuv asosida o'qitish boshlang'ich sinf o'quvchilarda turli sezgi organlari orqali matnni chuqurroq anglash, tovush va harf munosabatini mustahkamlash va o'qishga bo'lgan qiziqishlarni oshirish kabilar shakllanadi. Bu yondashuv orqali o'quvchilarning individual holatlari inobatga olingan holda o'qitiladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, multisensorli metodlar orqali o'tilgan darslardagi matnlarni o'quvchilar texnik jihatda to'g'ri o'qish bilan birga ularni ifodali va tushunarli tarzda bo'lishini ta'minlaydi va undan tashqari hissiy tarzda tushunishlari ham shakllanadi. Multisensorli yondashuvning rolli o'qish yoxud qo'shiq va rasmlilik hikoyalar kabi metodlari o'quvchilarda estetik didni oshiradi. Biroq bu yondashuvni amaliyotda qo'llashda ayrim cheklovlar bor. Birinchi navbatda bu yondashuvni ishlatish uchun o'qituvchilarda yetarli bilimlar va ko'nikmalarning yo'qligi, sinfdagi o'quvchilar sonining ko'pligi, darslik va resurslarning yetishmasligi bu yondashuvning ishlashi uchun to'siq bo'lib qolmoqda. Ilmiy adabiyotlar tahlilidagi Orton-gelingham yondashuvi, Barton Reading System va boshqa metodlar aynan disleksiyaga ega bo'lgan o'quvchilar

uchun ishlab chiqilgan va ularni oddiy sinflarga qo'llash uchun yondashuvni moslashtirish zarur.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, multisensorli yondashuv boshlang'ich sinf o'quvchilarida ifodali o'qish malakalarni shakllantirishning eng samarali usullaridan biri. Uni ta'lim amaliyotida to'g'ri shaklda kirita olsak o'quvchilarda o'qish va tafakkur madaniyati sezilarli darajada oshadi. Buning uchun esa birinchi navbatda bu yondashuvni to'liq tushungan va uni amaliyotda to'g'ri qo'llay oladigan kadrlarni tayyorlashimiz zarur. Undan so'ng esa bu yondashuv asosida metodik tizim yaratish va milliy ta'lim dasturlariga integratsiya qilish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarini samarali o'qishini ta'minlaymiz. Multisensorli yondashuv boshlang'ich sinf darslari uchun eng samarali, qiziqarli va foydali usul hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Orton, S., & Gillingham, A. (2000). *The Orton-Gillingham Approach to Reading Instruction*. Educators Publishing Service.
2. Birsh, J. R. (2018). *Multisensory Teaching of Basic Language Skills*. Brookes Publishing.
3. Jumayeva, M. B., & Shukhratovna, M. M. (2022). Effective methods of learning English grammar. *Science and innovation*, 1(Special Issue 2), 608-611.
4. Jumayeva, M., Naimov, D., & Shaymardanova, M. (2023). Methods of improving speaking skills of students in english language classes. *Science and innovation*, 2(B12), 368-371.
5. Mukarrama, J., Jasurbek, A., & Kamoliddin, S. (2022). Teaching listening skills in English.
6. Kamiljanovna, Z. D., O'G'Li, A. S. J., & Jumayeva, M. B. (2022). The Analysis Of Higher Order Thinking Skills. *Science and innovation*, 1(Special Issue 2), 672-676.
7. Tompkins, G. E. (2016). *Literacy for the 21st Century: A Balanced Approach*. Pearson.
8. Jumayeva, M. B. (2025). Use of educational methods in pedagogy. *Икро журнал*, 14(02), 168-174.
9. Abdisheribov, S., Yo'ldosheva, M., & Jumayeva, M. (2022). Implementing creative writing in English language teaching classrooms. *Science and innovation*, 1(B8), 1343-1347.

10. Jumayeva, M., & Mamajonova, N. (2022). Modern Methods In Education: Online Language Learning. *Science and innovation*, 1(B8), 1035-1038.
11. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.
12. Jumayeva, M., & Turdiyeva, U. (2022). The Importance Of Pedagogical Technologies In Learning English. *Science and innovation*, 1(B8), 1710-1714.
13. Nation, K. (2009). Form–Meaning Links in Learning to Read Words: Evidence, Pitfalls and Promise. *Journal of Research in Reading*, 32(1), 88–103.
14. Torgesen, J. K. (2006). Recent Discoveries from Research on Remedial Interventions for Children with Dyslexia.
15. Jumayeva, M., & Rashidova, M. (2022). The role of using game technology in the educational process. *Science and innovation*, 1(B8), 1448-1452.
16. Jumayeva, M. (2022). Characteristics of verbs in English and Uzbek Languages. *Science and innovation*, 1(B7), 711-714.
17. Snow, C. E., Burns, M. S., & Griffin, P. (1998). *Preventing Reading Difficulties in Young Children*. National Academy Press.
18. Ehri, L. C. (2005). *Learning to Read Words: Theory, Findings, and Issues*. Scientific Studies of Reading.
19. Uzbek Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. (2020). *Boshlang‘ich ta’lim metodikasi bo‘yicha tavsiyalar*. Toshkent.
20. Abdullayeva, G. (2019). *Boshlang‘ich ta’limda nutqni rivojlantirish metodikasi*. O‘zbekiston nashriyoti.
21. Jumayeva, M. (2022). The importance of feature films in increasing the effectiveness of English language teaching. *Science and innovation*, 1(B7), 581-583.
22. Jalolova, M. (2018). *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat*. Fan nashriyoti.
23. Jumayeva, M., & Qarshiyeva, M. (2022). The Role of Interactive Learning Technologies in the EFL classes. *Science and innovation*, 1(B8), 1273-1277.
24. Ziyayeva, G. (2022). Multisensorli yondashuv asosida savod o‘rgatishning nazariy asoslari. *Ta’lim va innovatsiyalar jurnali*.
25. Ismailova, D. (2021). Ifodali o‘qish ko‘nikmasini shakllantirishda yangi pedagogik yondashuvlar. *Boshlang‘ich ta’lim va tarbiya jurnali*.